

Agos



Shartnoma bor, ijro yo'q

5-betda o'qing




Tarixni yodga soluvchi kitob

7-betda o'qing

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/



ADOLATGA YO'G'RILGAN UMR

O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan yurist

ABDUSAMAT POLVON-ZODA

75 YOSHDA!

Har bir insonning hayotda o'z falsafasi, o'z shiori, o'z e'tiqodi bor. Abdusamat Polvon-Zoda tiynatida adolat ustuvor, haqiqat ustuvor, inson sha'ni, qadr-qimmatini yuksak o'rin tutadi. Shiori ham adolatga yo'g'rilgan, adolatga bog'langan.

Abdusamat Polvon-Zoda nomi nafaqat taniqli, tajribali huquqshunos, balki millat sha'ni, qadr-qimmatini himoya qila olgan zabardast huquq fidoiysi sifatida qadrlari va azizi. Bosib o'tilgan yo'llar mashaqqatli, ammo faxrga, iftixorga munosib.

Abdusamat Polvon-Zoda 1949-yil 17-yanvarda Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanida tug'ilgan. 1966-1967-yillarda Toshkent shahridagi "O'zgip-prokommunijproyekt" institutida muhandis bo'lib ishladi. 1967-1972-yillarda Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetida tahsil oldi.

Huquqshunoslik faoliyatini 1975-yilda O'zbekiston Respublikasi prokuraturasida boshlagan. 1990-yilgacha prokuratura organlarida mas'uliyatli lavozimlarda ishladi. 1990-2000-yillarda Oliy sud raisining birinchi o'rinbosari va mustaqillikka erishish arafasida Oliy sud raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchi, 2000-2005-yillarda Adliya vaziri lavozimida faoliyat olib bordi.

Abdusamat Abduhamidovich prokuratura, sud, adliya idoralarida samarali mehnat qilib, yuksak salohiyatli yurist sifatida tan olindi, mamlakatimizda qonunchilikni va huquq tartibotini mustahkamlashga o'zining ulkan hissasini qo'shdi.

Eng asosiysi, "Haqiqiy huquqshunos huquqning tub ma'nosini, adolatni his qila bilishi, o'z prinsiplaridan qaytmasdan sobitqadam turishi lozim" degan hayotiy aqidasi doim sodiqdir.

8-betda o'qing

2024-YIL
16-YANVAR
SESHANBA

№ 02
(1414)

www.hudud24.uz



YAGONA HISOBOTLAR TIZIMI

nima beradi?



Prezidentimizning 2024-yil 9-yanvarda qabul qilingan "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan 2024-yil 1-martdan boshlab 16 ta litsenziya va ruxsatnoma bekor qilinmoqda, jumladan:

- 7 turdagi ruxsat beruvchi hujjat to'liq bekor qilinadi (masalan, bo'xona tashuvchilari reyestriga kirishda yuklarni tashish uchun ruxsatnoma talab qilinmaydi);
- 6 turdagi ruxsat beruvchi hujjat birlashtirish yo'li bilan bekor qilinadi (xususan, eksport nazorati obyektlarini olib chiqish uchun ruxsatnoma hamda maxsus tovarlar eksporti va importi uchun litsenziya birlashtirilmogda);
- 3 turdagi faoliyat uchun litsenziya va ruxsatnoma xabarnoma tartibiga o'tkaziladi. Bular turagentlik faoliyati, I toifadagi (yakka tartibdagi uy-joylar) obyektlarning arxitektura shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish hamda yuridik maslahatlar ko'rsatish faoliyatlari).

Natijada tadbirkorlar litsenziya va ruxsatnoma olish uchun sarflaydigan 26 milliard so'mdan ortiq xarajatning oldi olinadi.

2-betda o'qing

Mamlakatimizda keyingi yillarda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida xalqaro aloqalar rivojlanmogda, dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasi o'rganilmogda. Ta'lim tizimi dunyo bo'ylab tan olingan, milliy hamda xalqaro ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan davlatlar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmogda.

O'ZBEKISTON VA AQSH O'RTASIDA TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIK

Jumladan, ta'lim sohasi xalqaro reytinglarda yuqori ko'rsatkichga ega davlatlardan biri bo'lgan AQShda ta'lim tizimi raqamli texnologiyalardan keng foydalanishga qaratilgan bo'lib, o'quv jarayonlari internet, onlayn ma'ruzalar, virtual laboratoriyalar va boshqa raqamli vositalar orqali amalga oshiriladi. Iqtidorli yoshlarimizning chet ellarda o'qish, xorij tajribasini o'rganish va uni kelajakda amaliyotda qo'llash orqali mamlakat rivojiga o'z hissasini qo'shish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida AQShning turli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik amalga oshirilmogda. O'zbekiston - Amerika ta'lim muassasalarining hamkorligi o'quv jarayonini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish hamda fundamental ilmiy tadqiqotlar kabi qator yo'nalishlarni qamrab oladi.

2-betda o'qing

2 KUN NAFASI

Davomi. Boshlanishi 1-betda

MATBUOT ANJUMANI

Davomi. Boshlanishi 1-betda

YAGONA HISOBOTLAR TIZIMI NIMA BERADI?



Shuningdek, litsenziya yoki ruxsatnomani berishda talabgorlarni video aloqa yordamida masofadan turib baholashga ruxsat etilmoqda (Hozirda tadbirkorning talablarga mosligini onlayn shaklda o'rganish imkoniyati bo'lsa-da, ushbu talablar joyiga chiqqan holda o'rganilmoqda).

Chiqish turizmini amalga oshirishda 15 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag'ni Xavfsiz turizm jamg'armasiga xaxira qilib qo'yish bekor qilinadi. Bunda xavfni majburiy sug'urta qilish tartibini joriy qilish orqali favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf qilinadi. Natijada 1,6 ming nafar tadbirkor ixtiyorida 24,5 million dollar qoladi.

Mehmonxonalarni sertifikatlashtirish uchun arizaga kadastr hujjatlarini talab qilishga chek qo'yiladi.

Endilikda yuridik shaxslarga tegishli transport vositasini texnik ko'rikdan o'tkazish joylarini ixtiyoriy ravishda tanlash mumkin.

Farmon bilan tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazishda uning pochta manzili sifatida muassisning turar joyini ko'rsatishga ruxsat berilmoqda.

"BIZNESGA LITSENZIYASIZ KIRISH"

Farmonda belgilangan yana bir muhim tartib – 2024-yil 1-martdan boshlab 2025-yil 1-yanvargacha qadar huquqiy eksperiment tariqasida rentgen uskunasidan foydalanish va veterinariya laboratoriya-dagnostika ishlarini amalga oshirish faoliyatlarini boshlash uchun uch oygacha o'tish va moslashish davrini belgilaydigan "Biznesga litsenziyasiz kirish" maxsus rejimi joriy etiladi. Hozirda ushbu faoliyatlar bilan 564 nafar tadbirkor shug'ullanmoqda. Ushbu rejimda:

a) litsenziya va ruxsatnoma olmasdan vakolatli organi xabardor qilgan holda 3 oy davomida faoliyatni amalga oshirishga ruxsat etiladi;

b) tadbirkor 3 oy davomida o'z faoliyatini tegishli talablarga muvofiqlashtirib, tegishli litsenziya yoki ruxsatnomani belgilangan

tartibda oladi yoki mazkur faoliyatni amalga oshirishni to'xtatadi.

Rentgendan foydalanishga ruxsatnoma olish uchun 6 ta talab mavjud bo'lib, tegishli organlardan xulosalar olingandan so'ng ariza 15 kun davomida ko'rib chiqiladi va 1,3 million so'm miqdorida to'lov undiriladi.

Veterinariya laboratoriya-dagnostika faoliyatiga litsenziya olish uchun 11 ta talab mavjud bo'lib, ariza 10 ish kunida ko'rib chiqiladi va 3,6 million so'm miqdorida to'lov undiriladi.

Maxsus rejim doirasida tadbirkorga ma'muriy yuk va xarajatsiz sinov tariqasida ushbu faoliyatni amalga oshirishga imkon yaratiladi.

Bundan tashqari, mazkur farmon bilan 2024-yilda normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish rejasini tasdiqlandi.

Shuningdek, majburiy talablarni qisqartirish, litsenziya va ruxsatnomalarni olishni soddalashtirish bo'yicha 33 ta banddan iborat "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Ushbu yo'l xaritasida 28 ta litsenziya va ruxsatnomadagi 50 tadan ziyod talablarni soddalashtirish nazarda tutilmoqda.

Litsenziya va ruxsatnoma berish tizimini soddalashtirish maqsadida 71 ta litsenziya va ruxsatnomalarning pasportlari ishlab chiqiladi.

Ushbu farmon qabul qilinishi natijasida tadbirkorlarning qariyb 350 milliard so'mlik xarajatlari tejalandi.

34 TURDAGI HISOBOTLAR BEKOR QILINADI

Prezidentning "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik ma'lumotlarni taqdim etish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan 2024-yildan boshlab tadbirkorlar tomonidan davlat organlariga topshiriladigan 34 turdagi hisobotlar bekor qilinadi.

Jumladan, boshqa davlat organlaridan ma'lumot olish imkoniyati mavjud bo'lgan, maqbullashtirish hisobiga hamda tanlanma kuzatuvga o'zgartirish orqali 26 turdagi statistik va bir-birini takrorlovchi hamda tegishli axborot tizimlarida mavjud bo'lgan boshqa 8 turdagi hisobotlar bekor qilindi.

Tadbirkorlar tomonidan davlat organlariga taqdim etiladigan hisobotlarning 50 foizga qisqartirilgan yagona ro'yxati tasdiqlanmoqda. Bunda:

a) yagona ro'yxatga kiritilmagan hisobotlarni tadbirkorlik subyektlaridan talab qilish taqiqlanadi;

Yagona ro'yxatga 105 ta hisobot turi kiritilib, zaruratga qarab hukumat tomonidan o'zgartirish kiritilishi mumkin.

b) hisobotlar avtomatlashtirilgan holda faqat axborot tizimlari orqali taqdim etiladi, hisobotlarni qog'oz shaklida topshirish tartibi bekor qilinadi.

Shuningdek, 2026-yil 1-yanvardan boshlab, tadbirkorlar tomonidan hisobotlarni shakllantirish va davlat organlariga taqdim etishni nazarda tutuvchi Yagona hisobotlar tizimi joriy qilinmoqda. Tizim 2026-yildan ixtiyoriy, 2027-yildan kichik va o'rta biznes uchun majburiy va 2028-yildan barcha uchun majburiy tartibda joriy etiladi. Bunda, hisobotlar ma'lumotlar bazalarida mavjud ma'lumotlar asosida avtomatik tarzda shakllanadi va ma'lumotlar to'g'riligini tadbirkor tasdiqlab beradi.

Ulug'bek ABDULLAYEV,
Ma'ruf NAZAROV,

Adliya vazirligi mas'ul xodimlari

Prezidentimizning 2018-yil may oyida AQShga rasmiy tashrifi davomida ikki hukumat o'rtasida ingliz tilini o'qitish hamda oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohaslarida hamkorlik to'g'risida anglashuv Memorandumi imzolandi. Shundan so'ng ikki mamlakat o'rtasida bir necha marta ta'lim sohasida hamkorlikni rivojlantirishga doir oliy darajadagi uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Ularda istiqbolli rejalar muhokama qilindi.

O'ZBEKISTON VA AQSH O'RTASIDA TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIK



Jumladan, 2021-yilning aprel oyida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida AQShning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi janob Deniyel Rozenblyum bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida elchi Rozenblyum ikki tomon hamkorlik qilayotgan Markaziy Osiyo universitetlari sheriklik dasturi (UniCEN) O'zbekistonning 22 ta universitetini amerikalik hamkasblar bilan birlashtirishini, Professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish dasturi (The Faculty Enrichment Program) esa O'zbekiston universitetlaridan bir nechta guruh o'qituvchilarni tajriba orttirish uchun AQShga yuborishini ta'kidlab, ushbu imkoniyatlarni O'zbekistonning yanada ko'proq universitetlariga kengaytirish yo'lida hamkorlik qilishga tayyor ekanligini bildirdi.

Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish, kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan rasmiy uchrashuvlardan yana biri 2023-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan AQSh elchisi Jonatan Xenik o'rtasida bo'lib o'tdi. Uchrashuvda ikki davlat universitetlari o'rtasida hamkorlik, talabalar, doktorantlar va tadqiqotchilar almashinuv dasturlari, ingliz tilini qo'llab-quvvatlash kabi loyihalar doirasida ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, ingliz tilini o'qitish, shuningdek, respublika oliy ta'lim muassasalariga ma'rufa o'qitish, seminarlar va mahorat darslarini o'tkazish maqsadida amerikalik mutaxassislarni jalb qilish hamda mamlakatimizda AQSh universitetlari filiallarini ochish O'zbekiston uchun manfaatli ekanligi qayd etildi.

Tomonlar qo'shma ta'lim dasturlarini (Double-degree Program) yaratish, amerikalik mutaxassislarni respublika oliy ta'lim muassasalariga jalb qilgan holda qisqa va uzoq muddatli ma'ruzalar, mahorat darslarini tashkil etish orqali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashishdi.

O'zbekiston – AQSh o'rtasidagi ta'lim, madaniy-gumanitar sohalardagi munosabatlarni mustahkamlash borasida "O'zbekiston – AQSh" do'stlik jamiyati tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar alohida tahsinga sazovor. Jamiyat tomonidan tashkil etilgan tadbirlarda AQShning turli universitetlari professor-o'qituvchilari hamda O'zbekistonning yosh tadqiqotchilari, talabalar ishtirok etib, tajriba almashishmoqda. Bu hamkorlik ikki tomonlama yo'lga qo'yilayotgani "O'zbekiston – AQSh" do'stlik jamiyatining uzoq kelajakka mo'ljallangan intilishlarini aks ettiradi.

2020-yil mart oyida O'zbekistonda AQShning "English Speaking Nation: Secondary Teacher Training" dasturi yo'lga qo'yilgan edi. AQShning 5 million dollar granti hisobiga amalga oshirilayotgan dasturdan ko'zlangan maqsad 3 yil davomida 15 mingdan ziyod ingliz tili o'qituvchilarining bilim va malakasini oshirishdan iborat bo'ldi.

2019-yil 1-noyabr kuni Toshkentda ish boshlagan AQShning ilk oliy ta'lim maskani – Webster universiteti oliygohning MDHdagi ilk to'laqonli filiali sanaladi. Mazkur universitet 1915-yili Missuri shtatida ta'sis etilgan bo'lib, dunyoda biznes ta'limi bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi.

AQSh va O'zbekistonning ta'lim sohasidagi hamkorlik aloqalari ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik va tashqi siyosiy munosabatlar asosida rivojlanmoqda. Bu hamkorlik ta'lim sohasidagi ixtisoslashgan, amaliy va ilmiy muhitni kengaytirish, o'quv jarayonlari sifatini oshirish, yangi innovatsiyalarni joriy etish va o'quvchilarni global standartlarga mos ravishda tayyorlash orqali amalga oshirilmoqda.

Xadicha SAYDULLAYEVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi

Samarqand shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazida "Ochiq eshiklar kuni" bo'lib o'tdi. Ochiq adliya tadbiri ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan "Sharof Rashidovning shaxsiy yig'majildi qayerda saqlanadi?", "Amir Temurning qabri ochilganda nega hamma hayratdan yoqa ushlagan?", "Ism yo familiyani pasport olish paytining o'zida o'zgartirish mumkinmi?", "Soch DNKsi qanday o'tkaziladi va u nimaga kerak?" kabi savollarga adliya xodimlaridan javob olishdi.

Amir Temur qabri bilan bog'liq voqea

ko'pchilikning e'tiborini tortdi



Ko'pchilikni Amir Temur qabrining ochilishiga doir ma'lumotlar ko'proq o'ziga jalb qildi. Shuning uchun Malik Qayumovning xotiralari va ayrim manbalar asosida Soqibqiron AmirTemur qabrini ochish bilan bog'liq ma'lumotlarni sizga yetkazishni lozim topdik.

QABRNI OCHISHDAN KO'ZLANGAN MAQSAD

O'sha davrda buyuk sarkarda qabri qayerda joylashgani va umuman Amir Temur O'zbekistonda dafn etilgani haqidagi gaplarga sovet rahbariyati shubha bilan qarardi. 1941-yil 21-mart kuni Stalinga Markaziy komitet va Madaniyat ministrligi tomonidan Go'ri Amir maqbarasida arxeologik qazishma ishlarini olib borish haqida xat yetib keldi. Ekspeditsiyaning maqsadi – Amir Temur qabrini aniqlash va O'rta asrlarda yashab, faoliyat yuritgan Temuriylar sulolasini ilmiy asosda tekshirib o'rganish deb ko'rsatilgandi.

Tegishli hujjatlar tayyorlangandan so'ng Stalinning buyrug'iga ko'ra ishchi guruh tuzildi. Unga boshliq qilib olim va jamoat arbobi Qori Niyozov tayinlandi, guruhga tilshunos olim A. Semyonov, antropolog olim M. Gerasimov, taniqli yozuvchi S. Ayniyar kiritildi (o'sha paytlar Amir Temur haqida asar yozish S. Ayniyaning orzusi edi). Malik Qayumov esa ish jarayonini tasvirlash uchun bosh operator etib tayinlandi. 1941-yil 15-may kuni ekspeditsiya boshlanishi belgilangan kundan 5 kun oldin, ishchi guruh Samarqandga yetib keldi. Go'ri Amir majmuasidagi qabrlarning ochilishi haqida xabar topgan minglab mahalliy aholi norozilik bildirib, majmuaga kela boshlashdi.

1941-yil 2-iyun birinchi ish kuni deb belgilandi. Har ehtimolga qarshi mahalliy ustalar ham chaqirib qo'yildi. Majmuadagi qabrlardan birining ustidagi toshni ko'tarishdi. Bu qabrni o'rganish uchun uch kun sarflandi. Negadir undagi suyak qoldiqlari yaxshi saqlanib qolmagan edi. Gerasimov faqat bosh chanog'i va umurtqa suyaklarini olib, ularni bir qutiga soldi. Bu qabr Amir Temurning suyakli farzandi Shohruh Mirzoga tegishli edi.

Navbatdagi – ikkinchi qabr ustiga qo'yilgan tosh og'irligi tufayli uni ko'tarish uchun mahalliy aholi ham yordamga chaqirildi. Bu qabr ichidagi kishining bosh suyagi tana suyaklarining yonida turardi. Bosh chanog'ida

o'tkir tig'dan qolgan izlar ham bor edi. Guruh a'zolarida Temurning sevimli nabirasi Mirzo Ulug'bekning qabri ochilganiga shubha qolmagandi. Ulug'bek qabri bilan ikki hafta shug'ullanishdi. Suyaklar, kiyim qoldiqlari ham saqlanib qolgan edi.

ENG QIYIN ISH KUNI

Navbat Amir Temur qabriga yetib kelganini ko'pchilik sezayotgan edi. Olimlarning e'tibori birinchi bo'lib qabr ustidagi toshga o'yib yozilgan yozuvlarga tushdi. Unda "Vaqti kelib hammamiz bu dunyoni tark etamiz. Bizgacha ham buyuklar bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Agarda kimda-kim bu narsani tan olmasa, qabrni qo'zg'ab yoki o'tganlar ruhini bezovta qilsa, eng dahshatli baloga yo'liqsin" degan mazmun aks etardi. Yozuvning oxirgi so'zlari ekspeditsiya a'zolarini sergaklantirib, qo'rquvga soldi. Ishni to'xtatmoqchi ham bo'lishdi. Ammo "yuqorining buyrug'i" bo'yicha qilinayotgan ishni hech bir qo'rquv to'xtata olmasdi.

21-iyun kuni ertalab soat 7:00 da ishchi guruh a'zolari yig'ilishdi. Lekin ish hadeganda yurishavermadi. Ish boshlanganidan yarim soat o'tar-o'tmas ko'tarish krani buzilib qoldi. Qabr ustida yotqizilgan plitani sekin-asta qo'lda sura boshlashdi. Uning tagida tuproqdan boshqa hech narsa ko'rinmasdi. Kunning yarmiga kelganda plitani ochishga muvaffaq bo'lishdi. Olimlar qo'llari bilan yerni kovlay boshlashdi. Nihoyat, tobutning qora qopqog'i ko'rindi. Kutilmaganda barcha yoritish uskunalarini o'chiib qoldi. Har xil ovozlari eshitilib, nafas olish qiyinlasha boshladi. Tanaffus e'lon qilindi.

BASHORATCHI CHOLLAR VA ARAB YOZUVIDAGI KITOB

Tanaffus paytida Malik Qayumov choy ichmoqchi bo'lib hovliga chiqdi. Uning ko'zi qo'llarida bir kitobni ushlab o'tirgan uchta cholg'a tushdi. Malik Qayumov otaxonlar bilan salom-alik qilar ekan, chollar undan: "O'g'im, sening ham qazishma ishlariga aloqang bormi?" – deb so'rashdi. Operator ularga hazillashib: "Men asosiy odamman, mensiz bular ishlashmaydi", – deb javob berdi. Chollar esa: "Temurning qabrini ochish mumkin emas, urush boshlanadi", – deb aytishdi. Malik Qayumov: "Buni sizlar qayerdan bilasizlar?" – deb so'raganida, qariyalar

uning qo'lga arab yozuvidagi katta bir kitobni tutqazishdi. Arab yozuvini o'qiy oladigan operator diqqat bilan sahifadagi jumalarni o'qiy boshladi, unda: "Buyuk lashkarboshi qabrini qo'zg'ash mumkin emas. Aks holda urush boshlanadi", – deyilgandi...

QABRDAN XUSHBO'Y HID TARALDI

Antropolog olim Gerasimov tobut ustidagi oxirgi taxtalarni olayotganida qandaydir tasvirlab bo'lmay xushbo'y hid atrofga taraldi. Qabr ichida bir baquvvat bahodir odam yotganligi sezilib turardi. Gerasimov Temur bosh chanog'ini qo'lida tutib, atrofdagilarga ko'rsata boshladi. Buyuk lashkarboshining o'ng oyog'idan yaralangani izlari uning suyaklarida ham saqlanib qolgan edi. Temur qabrining ochilganiga barchaning ishonchi komil bo'ldi.

MASH'UM XABAR

22-iyun tongida urush boshlangani to'g'risidagi xabar radio orqali e'lon qilindi. Gitterchilar sovet o'lkasiga urush boshlagan edi. Ekspeditsiya guruhi bu mash'um xabarni eshitib, o'zlarini yo'qotib qo'yishdi, ekspeditsiya ishini to'xtatib, Toshkentga qaytishdi. M. Gerasimov Temur bosh chanog'ini o'rganib, uning yuz tuzilishini ishlash uchun suyak qoldiqlarini olib Moskvaga yo'l oldi.

TAN OLINGAN AFSONA YOKI...

"Amir Temur suyak qoldiqlari solingan quti Moskvaga osmonida, front ustida aylantirilib, o'z joyiga qo'yilgandan so'ng urush olovlarini so'na boshladi". Nafaqat xalq og'zidan, balki mutaxassis olimlar tomonidan aytilayotgan bu fikrlar afsona yoki haqiqatligi borasida hali-hanuz aniq bir to'xtamga kelingani yo'q. Ancha sirli va har xil gap-so'zlarga sabab bo'lgan Temur qabrini o'rganish bo'yicha ishlar yakuniga yetgach, hisobot tayyorlandi. Uning bir nusxasi "markaz"ga jo'natilgan bo'lsa, yana biri Amir Temur qabrini yopishayotganda tobutiga qo'shib solindi. Bu hisobot to'rt tilda – o'zbek, rus, fors va ingliz tillarida Samarqand qog'oziga xitoy siyohida yozilgan, deya ko'rsatma beradi olimlar. Shundan ikki kundan so'ng Stalingrad ostonalari g'alaba qozonilgani to'g'risida xushxabar yetib keldi...

O'TGANLARNING RUHINI BOSHQA BEZOVTA QILISHMADI

Bu voqealardan so'ng Stalin umrining oxirigacha Sohibqiron Temur qabrini bezovta qilmadi. Temuriylar tarixi bo'yicha Ermitaj muzeyida o'tkazilishi ko'zda tutilgan ko'rgazma ham amalga oshmadi. Temur haqida kitob yozishni niyat qilgan S. Ayniy ham bu bora-da hech narsa yoza olmadi. Qo'lga kiritilayotgan g'alabalardan quvongan "O'rtoq Stalin" 1943-yilning yozida Samarqanddagi Temur maqbarasiga e'tiborini qaratib, unga 3-ekspeditsiyani jo'natdi. Maqbara va unda joylashgan qabrlarni ta'mirlash uchun 1 million rubl (o'sha paytda bu pulga taxminan 500 taga yaqin so'nggi rusumdagi mashina olish mumkin edi) mablag' ajratgani to'g'risida ma'lumotlar bor.

Mehrangiz HAKIMOVA,
Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi mas'ul xodimi

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida davlat organlari va tashkilotlaridagi shtatlar qisqartirilayotgani hech kimga sir emas. Xodim va ish beruvchi o'rtasida mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat shartnomasini bekor qilish, albatta, asoslangan bo'lishi lozim.

KIMLAR USTUNLIKKA EGA?



Davlat organi yoki tashkilotida shtat qisqarishi natijasida xodimlar ishdan bo'shatilganda malakasi va mehnat unumdorligi yuqoriroq xodimlar ishdan qoldiriladi. Malakasi va mehnat unumdorligi bir xil bo'lganda esa Mehnat kodeksining 167-moddasiga asosan quyidagi xodimlarga afzalliklar beriladi:

- ✓ qaramog'ida ikki yoki undan ortiq kishi bo'lgan xodimlarga;
- ✓ oilasida mustaqil ish haqi oluvchi boshqa xodimlar mavjud bo'lmagan shaxslarga;
- ✓ mazkur ish beruvchidagi uzoq muddatli ish stajiga ega bo'lgan xodimlarga;
- ✓ ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida mehnat shartnomasiga ko'ra tegishli mutaxassislik bo'yicha o'z malakasini oshirayotgan xodimlarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarini tamomlagan shaxslarga o'qishni tamomlaganidan keyin mutaxassisligi bo'yicha ishlash sharti bilan uch yil mobaynida;
- ✓ ushbu tashkilotda mehnatda mayib bo'lgan yoki kasb kasalligiga uchragan shaxslarga;
- ✓ nogironligi bo'lgan shaxslarga;
- ✓ 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyozlar bo'yicha ularga tenglashtirilgan shaxslarga;
- ✓ mehnatdagi yutuqlari uchun rag'batlantirilishlarga ega bo'lgan va intizomiy jazolarga ega bo'lmagan xodimlarga;
- ✓ atom obyektlaridagi avariyaalar oqibatida zarar ko'rgan shaxslarga.

Shuningdek, xodim shtat qisqarishi yoki malakasi yetarli bo'lmagani uchun ishdan bo'shatilayotganda, ish beruvchi xodimga uning mutaxassisligi va malakasiga muvofiq boshqa ishga o'tkazishni, bunday ish bo'lmaganda esa ish beruvchida mavjud bo'lgan boshqa har qanday ishni taklif etishi shart. Xodim taklif etilgan ishni rad etsa, ish beruvchida boshqa ish bo'lmasa, shundan so'nggina xodim ishdan bo'shatiladi.

Iskandar SAFAROV,

Boysun tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

Ajrimning
tartibi qanday?

– Oilada voyaga yetmagan bolalar bo'lmaganda nikohdan ajratishning qonuniy tartibi qanday?
Sohiba HAMIDOVA



– Voyaga yetmagan farzandlari bo'lmagan er-xotinlarni ularning o'zaro roziligiga ko'ra, nikohdan ajratishni qayd etish bo'yicha qonunchiligimizda tegishli normalar belgilangan. Oila kodeksining 42 va 218-moddalariga muvofiq, FHDY organi mulkiy nizolari hamda voyaga yetmagan farzandlari (shu jumladan, farzandlikka olinganlari) bo'lmagan er-xotinlardan nikohdan ajratish to'g'risidagi arizani qabul qiladi. Agar xotin homilador bo'lsa, nikohdan ajratish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etiladi.

FHDY organi er-xotinni yarashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay bu haqida er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'ini o'zaro qadriyatlarini mustahkamlash komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'ini o'zaro qadriyatlarini mustahkamlash komissiyasini yozma ravishda xabarot qilishi kerak.

Alohida yashovchi er-xotin nikohdan ajratishni qayd etish ularning birgalikda bergan arizalariga asosan FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar er-xotindan biri nikohdan ajralish to'g'risidagi arizani berish uchun FHDY organiga kela olmasa, u holda er-xotin nomidan birgalikda yozilgan arizani ulardan biri topshirishi mumkin. Kela olmagan er yoki xotinning arizadagi imzosi notarial tartibda yoki FHDY organi mudiri tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Arizada er-xotin ajralishga o'zaro rozi ekanliklari, voyaga yetmagan bolalari yo'qligi, shuningdek ulardan biri nikohdan ajratish qayd etilishi belgilangan kunda FHDY organiga kela olmasa, nikohdan ajratishning uning ishtirokisiz qayd etilishiga roziligi tasdiqlanadi.


Bunda FHDY organlari tegishli organlardan voyaga yetmagan farzandlari yo'qligini tasdiqlovchi hujjatlarni so'rashi mumkin.

Agar nikohdan ajralishga er-xotinning o'zaro roziligi bo'lgani holda umumiy mulk haqida yoki mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinning ta'minoti haqida nizolar bo'lsa, u holda nikohdan ajratish sud tartibida hal etiladi.

Er yoki xotindan birining nikohgacha bo'lgan familiyasiga qaytishi to'g'risidagi istagi nikohdan ajratish haqidagi arizasida ko'rsatilishi kerak.

Nikohdan ajratish qayd etilgandan so'ng, nikoh tuzilgani to'g'risidagi guvohnomaga uning tugatilgani haqida belgi qo'yiladi va u arizachilarga qaytariladi. Nikohdan ajratishni qayd etishda, er va xotinning o'zaro kelishuviga ko'ra, ularning biridan yoki ikkalasidan belgilangan tartibda davlat boji undiriladi. Er yoki xotindan birining ishtirokida nikohdan ajratishni qayd etishda davlat boji to'liq miqdorda undiriladi.

Ortiq JUMAYEV,
Bandixon tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi mudiri

Na yerdan foydalandi,
na auksionga tikkan
pulini qaytara oldi

Dunyo yaralgandan buyon odamzot yer bilan til-lashadi. Yer ko'pchilik fermerlarning hatto umr-mazmuniga aylangan. Chunki yer katta daromad manbai. Ular orasida paxta va g'alla yetishtirish-dan tashqari, dehqonchilik qilib turli xil sabza-votlarni chetga eksport qiladiganlari ham anchagi-na. "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori bilan Xatirchi tumanidagi yerlar onlayn tarzda auk-sion orqali fuqarolarga sotila boshlandi. Ayrim mu-tasaddilarning e'tiborsizligi tufayli xuddi shu auk-sion yer sotuvida qatnashgan o'nlab fuqarolarning haq-huquqlari cheklandi.

Nurafshon shahrida yashovchi fuqaro A. Azimov shahar adliya bo'limiga murojaat qilib, unga tegishli bino-inshoot-lar buzilishi natijasida ko'rilgan zarar-ni qoplashda amaliy yordam berishni so'ragan.

HOKIMLIKNING
BAHONASI O'TMADI

Murojaatni o'rganish davomida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan Nurafshon shahar bosh rejasiga asosan Toshkent viloyati ma'muriy markazini barpo etish rejalashtirilgani sababli fuqaro A. Azimovga kadastr hujjatlari asosida tegishli bo'lgan Toshkent yo'li ko'chasi 203-uyning bir qismi davlat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgani ma'lum bo'ldi.

Aniqlanishicha, hududdagi "Sa'dullo bobo Luqmonov" fermer xo'jaligining 274-sonli konturdagi 7 gektar yer may-doni Navoiy viloyat hokimining qaroriga binoan xaziraga olinib, fuqarolarga on-layn auksion orqali sotilgan. Mazkur yer-ni 10 dan ortiq fuqarolar 30 yilga ijaraga olishgan bo'lsa-da, bu yerdan foydalana olmayapti. Sababi, tuman kadastr bo'limi va bu ishga mas'ul mutasaddilarning aybi bilan fermerning 274-konturdagi yerini xaziraga olish o'rniga 254-konturdagi yer sotib yuborilgan. Birgina e'tiborsizlik, ya'ni 274 o'rniga belgilangan 254 raqamlari bo'is "Sa'dullo bobo Luqmonov" fermer xo'jaligining qonuniy huquqlari buzilgan. Natijada fermer sud qarori bilan o'z yerla-rini qaytarib olgan.

Auksion sotuvda yer olishda ishtirok etgan xatirchilik P. Ishmatov ana shunday fuqarolardan biri. U o'g'li bilan oilaviy tad-birkorlik qilishni niyat qilgan edi. Sabzav-ot yetishtirib, mahalliy bozorda savdo qi-lishni istagandi, afsuski, orzusi ushalmadi. Na yerdan foydalandi, na auksion sotuvga tikilgan pullarini qaytara oldi.

P. Ishmatov singari 10 nafardan or-tiq fuqaro auksionda sotib olgan yeri-dan qonuniy foydalana olmayotgani bir muammo bo'lsa, ularga foydalanish nasib etmagan yer uchun ikki yillik ijara haqlari hamda soliqlar to'lash majburiyati yukla-nayotgani yana bir muammodir. Eng achi-narlisi, ularning nomida elektron bazada yer mavjudligi uchun ular endi auksionda yer olish uchun qatnashish huquqidan ham mahrum.

Mazkur holatni bartaraf etish yuzasidan Xatirchi tuman adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Xatirchi tuman sudiga da'vo arizalari kiritilib, sud tomoni-dan qonuniy chora ko'rilmogda.

Navoiy viloyat adliya boshqarmasi
Axborot xizmati

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-noyabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta'minlash hamda yer uchastkasini olib qo'yish va kompensatsiya berish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq fuqaro A. Azimov ham-da Nurafshon shahar hokimligi o'rtasida notarial tar-tibda kelishuv bitimi tuzilmagani aniqlandi.

Bundan tashqari, mazkur murojaat yuzasidan o'tkazilgan o'rganish davomida shahar hokimligi to-monidan mulkdorga yetkazilgan zararni qoplash maq-sadida shahardagi "Navro'z" mahallasi hududidan 1 sotix yer maydoni berish to'g'risida hokimning 2019-yil 26-fevraldagi tegishli qarori qabul qilingani, biroq Prezidentning 2021-yil 8-iyundagi farmoniga asosan mahalliy hokimiyat organlari yer munosabatlariga oid yer uchastkalarini to'g'ridan-to'g'ri ajratish yuzasidan qaror, farmoyish yoki boshqa turdagi hujjatlarni qabul qilish huquqi 2021-yil 1-avgustdan bekor qilinganini vaj qilib yer ajratilmasdan kelingani ma'lum bo'ldi.

"Biznes baholash" MChJ tomonidan 2023-yil 20-iyunda tayyorlangan va tegishli vakolatga ega bo'lgan ekspert xulosasiga ko'ra, fuqaro A. Azimov-ga tegishli yer maydonining bozor qiymati 30 million 495 ming 242 so'm deb baholangan.

To'plangan hujjatlarga ko'ra, shahar adliya bo'limi to-monidan fuqaro A. Azimovning manfaatida unga javob-gar – Nurafshon shahar hokimligidan 30 million 495 ming 242 so'm kompensatsiya undirib berish yuzasi-dan fuqarolik ishlari bo'yicha O'rtachirchiq tumanlara-ro sudiga da'vo arizasi kiritildi va da'vo qanoatlantirilib, sudning hal qiluv qarori qabul qilindi.

Gulboy RAHMONQULOV,
Nurafshon shahar adliya bo'limi boshlig'i

Shartnoma bor, IJRO YO'Q



Qibray tuman adliya bo'limi tomonidan 2023-yil mobaynida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari manfaatini ko'zlab kiritilgan ta'sir choralari natijasida sudlarga 90 dan ziyod da'vo arizalari kiritilgan. Da'vo arizalarining 98 foizi qanoatlantirilgan.

Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan "Ibratli yo'l loyiha" MChJ rahbarining murojaati o'rganildi.

QARZDORDAN ASOSIY QARZ VA PENYA UNDIRILDI

Aniqlanishicha, "Ibratli yo'l loyiha" MChJ bilan Sirdaryo ko'priklardan foydalanish unitar korxonasi o'rtasida 2020-yilda avtotransport vositalari va mashina mexanizmlar bilan xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzilgan.

MChJ tomonidan yuk xatiga ko'ra 77 million 799 ming 360 so'm miqdoridagi yuklar yetkazilib, texnika xizmatlari ko'rsatilgan, biroq unitar korxona to'lovni amalga oshirishni paysalga solib, shartnoma majburiyatlarini bajarmagan. Bir necha bor og'zaki va yozma talabnoma asosida qarzdorlikni to'lash yuzasidan qilingan murojaatlar esa javobsiz qolgan.



Fuqarolik kodeksining 705-moddasiga ko'ra, buyurtmachi o'ziga ko'rsatilgan xizmatlar haqini haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan muddatlarda va tartibda to'lashi shart.

Yuqoridagilarga asosan, adliya boshqarmasi tomonidan "Ibratli yo'l loyiha" MChJ manfaatida Guliston tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qarori bilan unitar korxona hisobidan MChJ foydasiga 77 million 799 ming 360 so'm asosiy qarz, 18 million so'm miqdorida penya undirish belgilandi.

Javohir KOMILOV,

Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

Jumladan, 2023-yilning 30-noyabr kuni "T.E.G." MChJ rahbari A.B. tuman adliya bo'limiga tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan kreditor qarzdorligi to'lanmayotganidan norozi bo'lib, murojaat qildi.

Aniqlanishicha, "T.E.G." MChJ (Autorsor) nizom asosida faoliyat yurituvchi A.B. va Qibray tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Buyurtmachi) o'rtasida 2023-yil 26-yanvarda shartnoma tuzilgan.

Biroq, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan "T.E.G." MChJga nisbatan 1 milliard 582 million 330 ming 332 so'mlik kreditor qarzdorligi vujudga kelgan bo'lib, to'lab berish choralari ko'rilmagan.

Vaholanki, Fuqarolik kodeksining 324-moddasiga qarzdor majburiyatni bajarmagani yoki lozim darajada bajarmagani tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shartligi belgilangan.

Adliya bo'limi tomonidan T.E.G." MChJ manfaatida javobgar Qibray tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga nisbatan kreditor qarzdorligini undirish to'g'risida Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan 1 milliard 582 million 330 ming 332 so'mlik kreditor qarzdorligi to'lab berildi.

Abbosxon O'ROQOV,

Qibray tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

Bog'ot tuman adliya bo'limi tomonidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.



XODIMLARGA USTAMA TO'LANDI

Xususan, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Bog'ot tuman bo'limi xodimlarining uzoq muddat ishlagani uchun ustama to'lanmasdan kelinayotgani holati yuzasidan ustamalarni undirishda amaliy yordam berishni so'rab qilgan murojaatlari tuman adliya bo'limi tomonidan ko'rib chiqildi.

O'rganish davomida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Bog'ot tuman bo'limining 5 nafar xodimiga Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvardagi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan to'lanishi lozim bo'lgan jami 38 million 912 ming 681 so'm ustama to'lanmasdan qolgani aniqlandi.

Tuman adliya bo'limi tomonidan ekolog xodimlar manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Urganch tumanlararo sudiga da'vo arizalari kiritilib, xodimlar foydasiga jami 38 million 912 ming 681 so'm ustama undirilishi yuzasidan hal qiluv qarorlari chiqarildi.

G'anisher MAHMUDOV,

Bog'ot tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi



Mahkumlarning nikohi qanday qayd etiladi?

– Ozodlikdan mahrum etish joylaridagi shaxslar bilan nikohni qayd etish tartibi haqida ma'lumot bersangiz? Bu haqda qonunchiligimizda nima deyilgan?

Mansur OBIDOV



– Jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tayotgan shaxslar bilan nikohni qayd etish shu muassasa joylashgan hududdagi FHDY organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahkum bilan nikohga kirishni xohlovchi shaxs nikohga kirish haqidagi maxsus blankdagi arizaning o'ziga taalluqli qismini to'ldirib, doimiy (vaqtincha) ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'iy nazar, FHDY organiga topshiradi. FHDY organi arizani keltirilgan ma'lumotlarni ariza beruvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjati bilan solishtiradi. Arizada qayd etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini va arizachining imzosini tasdiqlaydi va unga arizani qaytaradi. Shundan so'ng mahkum bilan nikohga kirishni xohlovchi shaxs bu arizani mahkumga berishi uchun jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatiga topshiradi.

Mahkum bilan nikohga kirish haqidagi arizani olgandan keyin jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati uni tegishli joyini to'ldirish uchun mahkumga taqdim etadi. Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati to'ldirilgan arizadagi ma'lumotlarni mahkumning shaxsiy yig'majildidagi ma'lumotlar (mahkumning shaxsini tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan taqdirda ham) bilan solishtiradi. Ularning haqiqiylikini va imzosini tasdiqlaydi hamda arizani jazoni ijro etish muassasasi joylashgan mazkur hududdagi FHDY organiga yuboradi.

Bunda ariza FHDY organi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin shu kunning o'zida nikohga kiruvchi mahkumning tibbiy tekshiruvdan o'tishi uchun uylanma va nikohni qayd etish vaqtini belgilash to'g'risidagi xabarнома jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatiga yuboriladi.

Agar mahkumning shaxsiy yig'majildidagi uning oilaviy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar to'liq bo'lmasa, kam yoki noaniq bo'lsa, u holda jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati bu ma'lumotlarni tegishli tashkilotlar va muassasalar orqali ularni talab qilib olish yoki aniqlash choralari ko'radi.

Jazoni o'tash muassasalari ma'muriyati mahkumni belgilangan tartibda nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tkazadi. Mahkum bilan nikohni qayd etish FHDY organi bilan kelishilgan holda jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati tomonidan ajratilgan binoda, nikohga kiruvchi shaxslarning ishtirokida amalga oshiriladi.

Mahkumning shaxsiy yig'majildidagi anketasiga FHDY organi tomonidan shtamp bosiladi. Er yoki xotinning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan yili, FHDY organining nomi hamda nikoh tuzilgan sana va dalolatnoma yozuvi raqami yozib qo'yiladi.

Sudgacha qamoqda ushlab turilgan shaxslar bilan nikohni qayd etish tergov ishini olib borayotgan mansabdor shaxs yoki organ ruxsati bilan shu hududdagi FHDY organi tomonidan, vaqtincha saqlash hibsonasida (tergov hibsonasida, gaupvtaxtada) amalga oshiriladi.

Savolga Bandixon tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi 1-toifali inspektori Sherzod Abdullayev javob berdi

6 JARAYON

Sud amaliyotida aynan oila buzilib, nikoh bekor qilingandan keyingi muammolarga ko'p duch kelamiz. Yaqinda fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudiga da'vogar X.N. javobgar X.B.ga nisbatan uyga kiritish va foydalanish tartibini belgilash haqidagi da'vo arizasi bilan murojaat qildi.



DA'VOGAR DA'VOSIDAN VOZ KECHDI

Aniqlanishicha, tarafilar turmush qurganidan so'ng bir necha yil Yunusobod tumani, "Bog'i eram" mahallasi hududida joylashgan xonadonda istiqomat qilgan. O'rtalaridagi nikohdan 2 nafar voyaga yetmagan farzandi bor. Biroq, oilaviy nizo tufayli ayol 2021-yilda bolalari bilan mazkur xonadondan ota uyiga chiqib ketgan va 2023-yilda ularning nikohi sud tomonidan bekor qilingan. Da'vogar – X.N. farzandlari bilan ota-onasining uyida ukasi o'z oilasi va ota-onasi bilan birga yashayotgani va ularga alohida xona yetishmayotgani sababli, farzandlari bilan kelin bo'lib tushgan yuqorida ko'rsatilgan manzildagi uyga kiritib qo'yishni so'ragan.

Ish hujjatlariga va sudda aniqlangan holatlarga ko'ra, javobgarning oila a'zolari da'vogar bilan yaxshi munosabatda emasligi, ayolni bolalari bilan sobiq turmush o'rtog'ining uyiga kiritib qo'yilgan taqdirda ham da'vogar farzandlari bilan bu uyda yashay olmasligi, qolaversa, ular o'rtasidagi nikoh bekor qilingani, da'vogar esa uy-joydan chiqib ketganiga 6 oydan ko'p vaqt o'tgani ayon bo'ldi.

Bunday vaziyatda qanday ish tutish kerak? Muammoga ijobiy yechim topishning eng to'g'ri yo'li sud tomonidan ularni yarashtirish va nizoni tinch yo'l bilan hal etish choralarini ko'rishdan iborat, albatta. Jumladan, sud tomonidan olib borilgan muzokaralar va voyaga yetmagan farzandlarning taqdiri va manfaatlari yo'lida sudyaning javobgarga nisbatan otaning farzandi oldidagi mas'uliyati va majburiyati haqidagi tarbiyaviy tushuntirishlaridan so'ng, javobgar X.B. sudga yozma ariza taqdim etib, o'z nomida bo'lgan "Spark" rusumli avtotransport vositasini hamda 10 ming AQSh dollari miqdoridagi pulni sobiq turmush o'rtog'i va 2 nafar voyaga yetmagan farzandlariga uy olishi uchun berishini ma'lum qildi. Bu taklif da'vogar tomonidan qabul qilindi hamda sud tomonidan berilgan qisqa vaqt mobaynida ular o'zaro kelishib, da'vogar o'z da'vosidan voz kechdi. Bu esa oila va jamiyat uchun, farzandlar kelajagi uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yarashuv institutining amaliyotga joriy etilishi natijasida ko'plab fuqarolar "sudlangan" degan tamg'adan xalos bo'lyapti. Yarashuv institutining bir qator afzal tomonlari shundan iboratki, birinchidan, jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar to'liq qoplanishi ta'minlanadi. Ikkinchidan, jinoyat sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilgani uchun sudlanmagan hisoblanadi. Uchinchidan, aybdorni kechirish orqali u jazodan ozod etilib, tarbiyaviy jihati uni boshqa bunday holatga tushmaslikka undaydi. Darvoqe, yarashuv barcha jinoyat turlariga nisbatan qo'llanilmaydi. Faqat qonunchilikda belgilangan hollarda qo'llanilishi mumkin.

Mavluda BOBORAIMOVA,
fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek
tumanlararo sudi sudyasi



Konstitutsiyamizning 138-moddasida sud hokimiyatining hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiy ekanligi ko'rsatilgan. Ma'lumki, 2023-yil 25-dekabrda "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliqligi va adolatligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi va amaliyotga tatbiq etildi.

SUD ISHLARINI TAFTISH TARTIBIDA KO'RIB CHIQISH AMALIYOTI JORIY ETILDI

Unga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan boshlab tumanlararo sudlar tomonidan birinchi instansiyada sudida ko'rilgan ishlarni viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqish amaliyoti joriy etildi.

Sudda ish yuritish tezkorligi va sifatini oshirish, ish bo'yicha yakuniy qarorlar qabul qilish muddatlarini asossiz kechiktirishni bartaraf etish, har bir sud instansiyasining zimmasiga ish bo'yicha yakuniy qaror chiqarish majburiyati yuklatilishini, sud qarorlarini qayta ko'rish bosqichlariga taftish instansiyasi joriy etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Mazkur qonun bilan sud qarorlarini qayta ko'rishda viloyat sudlarining hamda ularga tenglashtirilgan sudlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslarning shikoyat qilish huquqidan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Xususan, sudning ajrimi ustidan shikoyat berish masalasida yangi institut – sud ishlarini taftish tartibida ko'rib chiqish amaliyoti joriy etildi. Ya'ni, yuqorida nomi keltirilgan qonunga asosan, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari tomonidan birinchi bosqichda ko'rilgan ishlarni viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish vakolati berildi.

Bunda birinchi instansiya sudining qaroridan norozi tarafilar viloyat sudiga apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilib, ularning ham natijasidan qoniqmasa, ushbu ish mazkur sudlarda taftish tartibida ko'rib chiqiladi. Sud ishidan yana norozi bo'lgan taqdirda, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan taftish tartibida ko'rib chiqilgan ishlar Oliy sudning sudlov hay'atida qayta ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, kassatsiya instansiyasining joriy etilishi kelgusida manfaatdor shaxslar tomonidan qonuniy kuchga kirgan sud hujjati ustidan shikoyat keltirish imkonini beradi. Masalan, suddagi bir taraf o'zi qatnashgan ish bo'yicha qabul qilingan sud hal qiluv qarori yoki ajrimidan qonuniy kuchga kirganidan keyin qaysidir holatga ko'ra norozi bo'lib qolishi mumkin. Ushbu holatda shaxs apellyatsiya shikoyati berish muddatini o'tkazib yuborgan bo'ladi. Ammo unda shikoyat keltirishda protsessual huquqdan foydalanish holda kassatsiya tartibida shikoyat berish huquqi mavjud bo'ladi.

SUD PROTSESSIDAGI MUHIM HUQUQIY INSTITUT

Fuqarolik ishini apellyatsiya va kassatsiya tartibida qayta ko'rish – sud protsessi ishtirokchilarining sud hujjatining qonuniyligi, asosliqligi va adolatligini tekshirish huquqini ta'minlovchi muhim huquqiy institut hisoblanadi. Qonunga muvofiq, apellyatsiya shikoyati (protesti) sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida berilishi mumkin. Kassatsiya shikoyati (protesti) esa birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oy ichida berilishi mumkin.

Taftish instansiyasi birinchi instansiya sudining apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori hamda apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining ajrimlari ustidan berilgan shikoyatni (protestni) ko'rib chiqish natijalariga ko'ra quyidagilarga haqli:

- ☒ hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni o'zgarishsiz qoldirishga;
- ☒ hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni to'liq yoxud qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror qabul qilishga;
- ☒ hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni to'liq yoki qisman o'zgartirishga;
- ☒ Fuqarolik protsessual kodeksining 372²-moddasi birinchi qismining 4-bandida va 372⁴-moddasi ikkinchi qismining 4-bandida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishga;
- ☒ hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni to'liq yoki qisman bekor qilishga va ushbu Kodeksda ko'rsatilgan asoslarga ko'ra arizani ko'rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni to'liq yoki qisman tugatishga;
- ☒ ayrim sud hujjatlarini bekor qilishga va ish bo'yicha ilgari qabul qilingan sud hujjatlaridan birini o'z kuchida qoldirishga haqli.

Taftish instansiyasi sudining ajrimida, qarorida bayon qilingan ko'rsatmalar mazkur ishni yangidan ko'rayotgan sud uchun majburiydir.

Taftish instansiyasi sudi u yoki bu dalilning ishonchliqligi yoki ishonchsizligi to'g'risidagi, ayrim bir dalillarining boshqalaridan ustunligi haqidagi, ish yangidan ko'rilgan taqdirda qanday qaror chiqarilishi kerakligi to'g'risidagi masalalarni oldindan hal qilib qo'yishga haqli emas.

Endi yuqori instansiya sudlariga yanada katta mas'uliyat yuklanib, ishni yangidan ko'rish uchun quyi sudlarga yuborish tartibining bekor qilingani ham sud hujjatidan norozi shaxsning yuqori instansiyaga ishonchini mustahkamlaydi.

Mazkur qonun fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini yanada kuchaytarishga, ish bo'yicha barcha holatlar sud tomonidan har taraflama va to'liq tekshirilishiga hamda xalqimizning sudlarga bo'lgan ishonchining yanada oshishiga xizmat qiladi.

Bobir ISLAMOV,
Toshkent shahar sudi raisi o'rinbosari, fuqarolik ishlari
bo'yicha sudlov hay'ati raisi

Odamzot yaralibdiki, qalbida yaratuvchilik, intilish mujassam. Kelajakka shijoat bilan qarab, nimanidir kashf qiladi, ixtiro etadi, yangilikka intiladi, umrguzaronlik qiladi. Buning uchun esa insonga bilim, malaka va ko'nikma kerak bo'ladi. Insonni ilm gulshaniga, saodat bo'stoniga, komillik cho'qqisiga yetaklovchi kuch shaksiz kitobdir.

TARIXNI YODGA SOLUVCHI KITOB

Kitoblarni mutolaa qilar ekansiz, mavzularning rang-barangligi, olamning turfa ekani, inson psixologiyasining betakrorligi, sohalarining har xilligiga guvoh bo'lasiz. Kitobning sakkinchisi mo'jiza ekani haqiqat. U bag'riga moziydan to'g'ri bugungacha bo'lgan barcha voqea va hodisalar, aynanchi, nashdali yoki jirkanch taqdirnlarni bemalol, beminat sig'dira oladi. Mutolaa jarayoni kitobxonga ijtimoiy hayotda zarur bo'ladigan ko'pgina ma'lumotlarni beradi.

Yaqinda "Ilm-ziyo-zakovat" nashriyotining kitob savdo rastasini ko'zdan kechira turib, taniqli huquqshunos, prokuratura, sud va Adliya vazirligining faxriysi Ermuhammad Shermatovning "O'tmishdan kelgan adolatli nidolar" nomli tarixiy, salmoqli kitobiga ko'zimiz tushdi. Kitobni qo'lga olishingiz bilan beixtiyor tarix tilga kiradi. Asar "Turkiston o'lkasi, O'zbekiston Respublikasi yustitsiya xalq komissarligi va Adliya vazirligi (1917-2020)", "Respublikamizda XX asrning fojiali voqealari" deb nomlangan ikki bobni o'z ichiga olgan.

Kitobga O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimov so'zboshi yozgan. Kitobning muqaddimasida Prezidentimizning adolat haqidagi fikrlari, Sharq allomalari bilim va adolat haqida yozib qoldirgan bebaho tarixiy meroslaridan ma'lumotlar keltirilgan.

Kitobning ilk bobida 1917-yildan hozirgi kungacha O'zbekiston Respublikasi Yustitsiya xalq komissarlari va adliya tizimida rahbarlik qilgan vazirlar hayoti va faoliyati haqida, ularning amaliy ishlari xususida qimmatli fikr-mulohazalar berilgan. Ular 38 kishini tashkil qiladi. Har birining hayoti, faoliyati turfa, taqdirnlari turlicha. Mutolaa jarayonida yurtimizning qariyb bir asrlik tarixi ko'z o'ngingizda gavdalanadi. Kitobdagi turfa taqdirlar bilan tanishar ekansiz, biriga beixtiyor achinasiz, bir o'rinda nadomat chekasiz, qahr-lanasiz, birining qilgan yaxshi ishlaridan mehringiz jo'shadi...

Kitobda har bir rahbarning hayoti va faoliyatidagi voqealarning isboti, dalili sifatida arxivlardan olingan hujjatlarning nusxalari ham keltiriladi. Sobiq sovet hukumati rahbarlarining ommaviy qatag'oni Yustitsiya komissarligini ham chetda qoldirmaydi.

1913-yilda oddiy oilada tavallud topgan Xadicha Sulaymonovaning sermazzun hayoti o'quvchini befarq qoldirmaydi. Adijonlik qizaloqning muvaffaqiyatlariga ba'zan ishongisi ham kelmaydi odamning. Lekin yuragida shijoat, matonat, g'ayrat jo'sh urib turgan X. Sulaymonovaning ibratli ishlari, qat'iyyati, zukkoligi



va fidoyiligi bugungi yoshlar uchun ibrat maktabi bo'ladi.

Kitobni varaqlar ekansiz, adliya tizimiga turli yillarda rahbarlik qilgan Mamlakat Vosiqova, No'mon Bo'ruxo'jayev, Mirzo-Ulug'bek Abdusalomov, Alisher Mardiyev, Sirojiddin Mirsafayev, Abdusamat Polvon-Zoda, Bo'ritosh Mustafoev, Nig'matilla Yo'ldoshev, Ruslanbek Davletov, Akbar Toshqulov va boshqa fidoyi insonlar, yetuk huquqshunoslarning adliya organlarini rivojlantirish borasida amalga oshirgan ijobiy ishlari bilan tanishasiz, o'zingiz uchun xulosa chiqarasiz.

Kitobning "Respublikamizda XX asrning fojiali voqealari" nomli bobida qatag'on qurbonlari to'g'risida gap boradi. 1983-1989-yillarda mamlakatimizda "Paxta ishi" va "O'zbeklar ishi" deb nom olgan "qama-qama"lar, Gdlyan, Ivanov boshchiligidagi qonxo'rlarning xalqimiz boshiga solgan jabru sitamlari, butun boshli millatni jinoyatchiga chiqarib, tergov bahonasida qilgan xunrezliklari dalillar asosida ochib tashlangan. Bu haqda SSSR prokuraturasi boshqarma boshlig'i, general Viktor Ilyuxin o'zining "Qabohat yoxud..." deb nomlangan kitobida Gdlyan va Ivanov SSSR prokuraturasiga tanish-bilishlari orqali kelib qolgan, malakasi past, madaniyatsiz, xavfli jinoyatchi, tergovchilar edi, deb baho beradi.

Ko'pchilik aholi bu qatag'onlar haqida muayyan tasavvurga ega. Ammo, keyinchalik - mustaqillik arafasida va mustaqillikning dastlabki yillarida "Paxta ishi" va "yicha asossiz jinoyi javobgarlikka tortilgan minglab vatandoshlarimizni "oqlash" borasida Moskva va Toshkent o'rtasida olib borilgan "jang"lar va uning qahramonlari haqida ko'pchilik bilmaydi. Muallif o'sha davr voqealariga to'xtalar ekan, minglab yurt-doshlarimizning pok nomlarini oqlash, ularni Vataniga, oilalari bag'riga qaytarish jarayonlari naqadar og'ir kechgan, bu yo'lda ko'rsatilgan jasorat, qat'iyyat, fidoyilik va sadoqat namunalarini mahorat bilan qalamga olgan.

Bir so'z bilan aytganda, Ermuhammad Shermatovning "O'tmishdan kelgan adolatli nidolar" nomli kitobi ming-minglab yurtdoshlarimizga tarixning achchiq haqiqatlarini teranroq anglashda muhim qo'llanma bo'lishiga, keng kitobxonlar ommasi uchun sevib o'qiladigan kitobga aylanishiga umid qilamiz.

Komil SINDAROV,
yuridik fanlar doktori, professor,
Charos YULDASHEVA,
huquqshunos

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi va tadbirkorlikka oid boshqa qonun hujjatlarida tadbirkorlik subyektlari hisoblangan fuqarolar (jismoniy shaxslar), yuridik shaxslar, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda ular vakil qilgan maxsus organlar tadbirkorlik faoliyatini o'z xohish-irodasi-dan kelib chiqib olib borishlari belgilab qo'yilgan.

Bu o'rinda ta'kidlash muhimki, har qanday tadbirkorlik tashabbusdan vujudga kelsa-da, umummajburiy (umume'tirof etilgan) qoidalar doirasida taraflar tengligi va shartnoma erkinligiga asoslanib shakllanadi. Aynan shartnoma asosida tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlar va aloqalar tartibga solinadi, rivojlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi shartnoma erkinligi mazmun-mohiyatiga ko'ra, uchta elementni - shartnomani tuzish, tuzilajak shartnoma turi va shaklini tanlash hamda shartnoma mazmunini belgilash erkinliklarini anglatadi. Biroq ayni paytda tadbirkorlikka oid shartnomalar tahlili shartnoma erkinligiga to'la mos emas. Demoqchimizki, shartnoma erkinligi muayyan doirada chegaralanadi. Shunday bo'lsa-da, shartnoma erkinligining har qanday buzilishi yoxud cheklanishi shartnoma huquqi va qonunchiligining asosiy shartlariga zid hisoblanadi.

Biznes yuritishda SHARTNOMA ERKINLIGI

Biznes yuritishda shartnoma erkinligi tadbirkorlik subyektlarining qonun bilan taqiqlanmagan, ayni vaqtda qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishlariga, turli xil shartnomalar tuzishlariga ruxsat beradi. Ya'ni, shartnoma tuzish erkinligi fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z huquqlarini o'zlarining xohish-irodalariga va manfaatlariga muvofiq ravishda vujudga keltirish hamda amalga oshirish imkoniyatidir.

Shartnoma erkinligining yana bir tarkibiy elementi - fuqarolar va yuridik shaxslarning har qanday shartnomaviy munosabatlarga kirishish yoki kirishmaslik huquqiga egaligida aks etadi. Bunda ular o'zlar uchun hamkor sheriklarni mustaqil tanlaydilar. Biroq, qanday shartnoma tuzilishidan qat'i nazar qonun hujjatlari va umumiy shartnomaviy qoidalariga zid kelmasligi shart.

Shartnomaning rioya etilishi majburiy bo'lgan shartlari faqat qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan bo'lishi kerak. Aksariyat hollarda, tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida dispozitiv (ixtiyoriy) normalar belgilab qo'yiladiki, ular taraflarning kelishuvi orqali boshqa qoida o'rnatilmaganligi sababidan qo'llaniladi. Bunda taraflar o'z kelishuvlari bilan dispozitiv me'yorlarni qo'llashlari yoki istisno etishlari yoxud qonunga zid bo'lmagan har qanday boshqa shartni joriy qilishlari mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, tadbirkorlik sohasidagi shartnomaviy munosabatlar shartnoma erkinligiga asoslanadi. Chunki shartnoma erkinligi tamoyil sifatida mutlaq, deb e'tirof qilinadi.

Rustam RO'ZIYEV,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori

E'LONLAR

Advokatlar palatasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 25-dekabrda qaroriga asosan viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrda buyrug'i bilan "Nasaf madad maslahatchi" advokatlar hay'ati advokati Kudratov Shog'dor Qurbanovichning advokatlik maqomi 3 oy muddatga, ya'ni 2023-yil 25-dekabr-dan 2024-yil 25-mart kuniga qadar to'xtatildi.

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonuni 152-moddasiga muvofiq Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 11-yanvardagi 5-um-son buyrug'iga asosan, Do'stlik tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius T. Xaydarovga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 15 kun muddatga (2024-yil 12-yanvardan) to'xtatildi.

8 ADLIYA FAXRIYSI

MILLAT SHA'NI UCHUN
KURASHGAN QAT'IYATLI
YURIST

Abdusamat Polvon-Zoda uchun qonun ham, inson ham birdek aziz. U rahbarlik lavozimlarida ishlagan davrlarning o'ziga xos zalvorli yuki, mashaqqatlari og'ir edi. Ayniqsa, o'sha davrning, o'tgan asrning 80-yillarida respublikamizda sobiq sho'rolar davlati farmonlari bilan "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" deb nomlangan adolatsiz jazolardan o'zbek xalqini qutqarish huquq posbonlari uchun albatta oson ish emas edi. 1990-yilda respublikamizda "Paxta ishi" bo'yicha hukumat komissiyasi tashkil etilib, A. Polvon-Zoda o'z vazifasidan tashqari ana shu komissiya raisining o'rinbosari etib tayinlandi. U adolatning qaror topishi uchun bor bilimi va kuchini ishga soldi. Komissiya tomonidan "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" deb atalgan qatag'onning fosh qilinishi bu minglab begunoh odamlarning haqsiz jazolardan xalos bo'lishi, o'z oilalari bag'riga qaytishi bilan birga O'zbekistonning obro'-e'tiborining dunyo ko'z o'ngida tiklanishi, xalqimizning, millatimizning or-nomusi, sha'ni ulug'lanishi ham edi. Haqiqat yuzaga chiqdi. Ammo...

Faxriy huquqshunos Ermuhammad Shermatovning Respublikamizda XX asrning fojiali voqealaridan hikoya qiluvchi "O'tmishdan kelgan adolatli nidolar" kitobidan Abdusamat Polvon-Zodaning xuddi ana shu yo'ldagi jasorati va adolat yo'lidagi mashaqqatlari alohida joy olgan.

Gdlyan va Ivanov hamda ular bosh bo'lgan tergov guruhi a'zolarining qonunlarni surbetlarcha oyoqosti qilib, o'z muddaolariga erishish uchun gumonlanuvchilarni vahshiyona qiy-noqlarga solgani, gdlyanchilar fuqarolarning qonuniy huquqlarini qasddan poymol qilishlari, haqoratlar, xo'rlashlaridan g'azablangan komissiya a'zolari haqiqat qaror topishi, "o'zbeklar ishi" bo'hton va tuhmat ekanligini isbotlash uchun kurashdi. O'zbek xalqini himoya qilish uchun markazga – SSSR Oliy Sovetiga O'zbekistondan saylangan deputatlarining ma'ruzalari tayyorlashda yuridik jihatdan tegishli yordam ko'rsatish uchun Moskvaga yuborilgan Abdusamat Polvon-Zoda o'sha davrdagi kurashlar haqida shunday hikoya qiladi: "...1990-yil aprel oyining o'rtalari edi. Yo'ldosh Akbarov va Vladimir Odilov Oliy Sovet majlisidan jig'ibiyon bo'lib mehmonxonaga kelishdi. Oliy Sovet majlisiga so'zga chiqish uchun birinchilardan bo'lib ro'yxatga yozilgan bo'lishiga qaramasdan ularga so'z berilmagani, faqat Gdlyan va Ivanovlarni himoya qiladiganlarga so'z berishgani, albatta, katta o'yin edi. Yopig'liq qozon yopig'lig'icha qolishi uchun markazning o'yini edi. Ammo shu yerda A. Polvon-Zoda SSSR Oliy Sovetiga saylangan o'zbekistonlik deputatlarga so'z



Suratda chapdan o'ngga: Adliya faxriysi – Ermuhammad Shermatov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist – Abdusamat Polvon-Zoda, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi faxriysi – Ubaydulla Shodiyev hamda O'zbekiston Respublikasi fan arbobi – Halim Boboyev.

ADOLATGA YO'G'RILGAN UMR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATGAN YURIST

ABDUSAMAT POLVON-ZODA 75 YOSHDA!

bermay, o'z kirdikorlarini yashirishga uringan sobiq sho'ro amaldorlariga huquqiy mafkura bilan qarshi tura olgan benazir huquqshunos sifatida buning ham chorasini topdi. Har qanday to'siq va qarshiliklarga qaramasdan, haqiqatni oshkor qilishga bor kuchini sarfladi. SSSR Oliy sovetiga O'zbekiston SSRdan saylangan deputatlarning qat'iy talabi qo'yilgan murojaatnomasini tayyorlab, har qancha qarshiliklarga qaramasdan, deputatimiz uni o'qib eshittirishiga muvaffaq bo'ldi. Chunki, u bu rejasi, albatta, zaldagilarda katta rezonans uyg'otishini bilardi, deputatlar "o'zbeklar ishi" millatimizga xiyonat va tuhmat ekanidan xabardor bo'lishiga ishonardi.

A. Polvon-Zodaning o'tkir bilimi va adolat yo'lidagi kurashdan qaytmasligi uni mana shunday jasoratga chorlashi tabiiy edi. U tayyorlagan murojaatnomada sobiq ittifoqning xunuk siyosiy o'yinlarini oshkor qilish jasorati bor edi. O'zbek xalqini oqlash, jazodan ozod qilish, Gdlyan va Ivanovlarning kirdikorlarini ochishga qaratilgan murojaatnoma o'z ta'sirini ko'rsatdi. Qahramonimiz bu kurashdagi katta g'alabasini g'urur bilan ifodalaydi: "...SSSR Oliy soveti Gdlyan va Ivanovni lavozimlaridan bo'shatishga ruxsat berdi, ammo ularni jinoiy javobgarlikka tortish va qamoqqa olish haqidagi talablarimizni rad etdi. Bu ham katta g'alaba edi."

Abdusamat Polvon-Zoda "Paxta ishi" qanday vujudga kelgan edi?" asarida Gdlyan va Ivanovchilarga qarshi kurashish, ularning tuhmat va bo'htonlariga qonuniy zarba berish oson ish emasligi haqida batafsil yozgan. Ammo komissiya bu ishni uddaladi. "Paxta ishi" bo'yicha besh yuzga yaqin sudlanganlar ishi ko'rib chiqildi va ular qo'shib yozish jinoyatini rahbarlarning tazyiq o'tkazgani oqibatida sodir etgani uchun oqlandi. Shundan so'ng komissiya ishiga

to'sqinlik qilish, tazyiq o'tkazishlar boshlandi. Hatto komissiya faoliyatini tugatish-tarqatish masalasi ham ko'tarilgan edi. Ammo qat'iyat va adolatli talablar o'z samarasini berdi. "Paxta ishi"ni qayta ko'rib chiqish davom ettirildi. A. Polvon-Zoda imzo chekkan protestlarga asosan 3 ming 500 kishi tazyiqlar ostida qo'shib yozishda ishtirok etgani uchun oqlandi. Ularga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar qoplandi, barchasi ish joylariga tiklandi. Bu chinakam g'alaba edi.

Inson huquqlarini himoya qilish qahramonimiz hayotining mazmunini belgiladi, shu maqsad-muddao bilan nafas oldi. Qayerda, qaysi lavozimda bo'lmasin, inson va uning sha'ni, qadr-qimmatini yuksak o'ringa qo'ydi, haq-huquqlarni himoya qilishni asosiy burchi deb hisobladi.

ADLIYANING OBRO'SI
YANADA YUKSALDI

A. Polvon-Zoda Adliya vaziri lavozimida ishlagan yillarida adliya tizimining obro'sini ko'tarish davri bo'lib, xoh tadbirkor, xoh oddiy fuqaro bo'lsin, ularning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini so'zsiz himoya qilinishi uchun sog'lom muhit yaratildi.

Xususan, Adliya vaziri lavozimidagi faoliyati mamlakatimizda tadbirkorlikni kuchaytirish, ularning haq-huquqlarini ta'minlash, ishlab chiqarishga qo'shayotgan ulushini yanada oshirish masalalariga katta e'tibor berilayotgan bir davrga to'g'ri keldi. Shu boisdan ham vazirlikning asosiy e'tibori tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qat'iyat bilan himoya qilishga qaratildi. Tadbirkorlarning ishlariga turli nazorat etuvchi idoralar xodimlari tomonidan g'ayriqonuniy aralashish, ularga turli to'siqlar qo'yish, o'zboshimchalik bilan tekshirish, ta'magirlik holatlari avj olib ketgani hech kimga sir emas. Bunday noxush

vaziyatni bartaraf etish uchun Adliya vazirligi tomonidan huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlikda keng miqyosdagi aniq choralar ko'rilganini yaxshi bilamiz.

Jumladan, noqonuniy tekshiruvlarga barham berish uchun tadbirkorlik subyektlarining huquqini himoya qilish tizimi va mexanizmi yaratilib, mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan har qanday qonunbuzilishi holati yuzasidan Adliya vazirligiga maxsus xabarnoma yuborish tartibi joriy etilgan va qonun buzilgani uchun jazo muqarrarlari ta'minlangan.

Adliya idoralarining da'vo arizalariga asosan, sudlar xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga noqonuniy aralashish oqibatida asossiz ularga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar, boy berilgan foydani mansabdor shaxslarning cho'ntagidan tadbirkor foydasiga undirish amaliyoti joriy etilgan.

A. Polvon-Zoda rahbarligida joriy etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi bir necha yuz ming nusxada chop etilib, tadbirkorlarga tarqatilgan. Ushbu kitobda belgilangan qoidalar bugungi kunda ham tadbirkorlar uchun juda muhim huquqiy himoya vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Jinoiy javobgarlikka tortilgan tadbirkorlarga oid sud amaliyoti ham doimiy ravishda Adliya vazirligi tomonidan tahlil etilib borilgan. Har bir tadbirkor-ga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi favqulodda hodisa deb baholangan bo'lib, 2000-yilning o'zida 315 nafar tadbirkor oqlangan.

QADR HAM YUKSAK
MUKOFOT

Bularning barchasi huquqshunoslikni qismat deb bilgan, adolatni suv va havodek qadrlagan Abdusamat Polvon-Zodadek fidoiy inson uchun taqdir sinovlari edi. Yuksak ma'naviyatli, salohiyatli, irodali shaxs sifatida u bu sinovlardan, chig'irliqlardan mardona o'tdi, xalqimizning dardiga malham bo'ldi, yorug' yuz bilan millatimizning yuksak ishonchiga sazovor bo'ldi, cheksiz qadr-qimmat topdi.

Abdusamat Abdumamidovichning halol mehnatlari, fidokorona xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. "Oliy malakali sudya darajasi", "Birinci darajali davlat adliya maslahatchisi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist" unvonlariga sazovor bo'ldi, "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlandi.

Adolat chinori bo'lgan bunday shaxslar hamisha xalqimiz ehtiromi va e'zoziga munosibdir. Qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin, Abdusamat aka! Yurtga, xalqqa sadoqatingiz, adolat yo'lidagi dadil qadamlar uchun Sizga tashakkur!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

Adolat milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2010-7897



Bosh
muharir

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboeva
Yorбек Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mullifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Yorбек Iskandarov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-
zasida teriladi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma tabaq
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi-
da chop etiladi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-manze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 4088
Buyurtma – 132

Topshirish vaqti – 19.00
Topshirildi – 19.00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5